Ma’muriy organlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy jihatlari



“Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasiga ko‘ra, ma’muriy organlarga ma’muriy-huquqiy faoliyat sohasida ma’muriy boshqaruv vakolati berilgan organlar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, ushbu faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa tashkilotlar va maxsus tuzilgan komissiyalar kiradi[1].

[1] Ўзбекистон Республикаси “Маъмурий тартиб-таомиллар тўғрисида”ги қонун, https://lex.uz/docs/3492199 (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.01.2018 й., 03/18/457/0525-сон; 07.01.2020 й., 03/20/600/0023-сон).

Ma’muriy organlar mansabdor shaxslari hokimiyat vakili vazifasini bajaradigan yoxud mazkur organlarda ma’muriy-boshqaruv (tashkiliy-farmoyish berish) vazifasini amalga oshiradi. Yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etish vakolatiga ega boʻlishadi.

Ma’muriy organlar va mansabdor shaxslarining harakatlari deyilganda, qaror shaklida ifodalanmagan boʻlsa ham, biroq manfaatdor shaxslar huquqlari va erkinliklarining buzilishiga olib kelgan yoki ularning huquqlari va erkinliklari amalga oshirilishiga toʻsqinlik qilgan yuridik ahamiyatga ega farmoyishlar tushuniladi.

Harakatsizlik esa ma’muriy organ yoki uning mansabdor shaxsi zimmasiga normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar (lavozim yoʻriqnomalari, nizomlar, reglamentlar, buyruqlar) bilan yuklatilgan majburiyatni bajarmaslik tushuniladi.

Ma’muriy sud ishlarini yuritish toʻgʻrisidagi kodeksning 26-moddasiga koʻra, ma’muriy sudda fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi, ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar koʻriladi.

Qonun bilan ma’muriy sudga taalluqli ishlar jumlasiga boshqa ishlar ham kiritilishi mumkin.

Oʻzaro bogʻliq boʻlib, ba’zilari ma’muriy sudga, boshqalari esa fuqarolik ishlari boʻyicha sudga taalluqli boʻlgan bir nechta talab birlashtirilgan taqdirda, barcha talablar fuqarolik ishlari boʻyicha sudda koʻrilishi lozim.

Oʻzaro bogʻliq boʻlib, ba’zilari ma’muriy sudga, boshqalari esa iqtisodiy sudga taalluqli boʻlgan bir nechta talabni birlashtirishga yoʻl qoʻyilmaydi.

MSIYutKning 27-moddasiga koʻra, sud:

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish toʻgʻrisidagi;

2) davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli boʻlgan boshqa organlarning, fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlariga mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish toʻgʻrisidagi;

3) saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish toʻgʻrisidagi;

4) notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni roʻyxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish toʻgʻrisidagi;

5) davlat roʻyxatidan oʻtkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat roʻyxatidan oʻtkazishdan boʻyin tovlash ustidan shikoyat qilish toʻgʻrisidagi;

6) investorlar bilan ma’muriy organlar, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari oʻrtasidagi ular mansabdor shaxslarining investisiya shartnomasi shartlariga rioya qilinishi bilan bogʻliq qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish toʻgʻrisidagi;

7) raqobat toʻgʻrisidagi, ya’ni yuridik shaxslar, shu jumladan chet ellik yuridik shaxslar, xoʻjalik boshqaruvi organlari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va monopoliyaga qarshi organ oʻrtasida tovar hamda moliya bozorlarida raqobat sohasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan, ma’muriy sud sudloviga tegishli hal qiladi.

Sud fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish toʻgʻrisidagi ma’muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan yuzaga keladigan, qonun bilan oʻzining vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni ham hal qiladi.

Ma’muriy sudlarga shikoyat qilish masalasini oʻrganish uchun, birinchi navbatda, “ommaviy-huquqiy munosabat” tushunchasini tahlil qilish lozim boʻladi.

Bir tomonning ikkinchi tomonga nisbatan vakolatlarini qoʻllashi natijasida ommaviy-huquqiy munosabat vujudga keladi. Ya’ni huquq subyektlari oʻrtasida huquqiy munosabat oʻrnatiladi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

birinchidan, subyektlar o‘z huquqiy maqomida teng emasligi;

ikkinchidan, ommaviy-huquqiy munosabatga kirishishda hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan subyekt ishtirokining majburiyligi;

uchinchidan, “hokimiyat-bo‘ysinish” formulasiga mos ravishda qurilgan bo‘lib, bir taraf faqat huquqiy majburiyatlarga, ikkinchi taraf subyektiv huquqlarga ega bo‘lishi;

to‘rtinchidan, jismoniy shaxsning huquqiy maqomi turli ko‘rinishda uchrashi, xususan, jismoniy shaxs majburiyatlarga ega taraf sifatida, mansabdor shaxs esa hokimiyat boshqaruv vakolatiga ega taraf sifatida ishtirok etishi;

beshinchidan, taraf sifatida jamoaning, ko‘pchilikning fikrini ifoda etadigan subyekt sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan jamoat tashkilotlari, birlashmalari ishtirok etishi mumkin.

Tadqiqotchi N.V.Suxarevning fikricha, ma’muriy-huquqiy nizo ma’muriy munosabat ishtirokchilaridan birining ma’muriy-huquqiy munosabatning vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishiga sabab bo‘lgan yuridik faktga nisbatan noroziligi ifodasini bildiradi. Ma’muriy-huquqiy nizolar bu, ma’muriy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlariga oid bo‘lgan nizolardir va ular o‘zining mazmuni jihatidan boshqa yuridik nizolardan farq qiladi[2].

Y.N.Starilovning fikricha, ma’muriy huquqiy munosabatlar subyektlari o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarning o‘ziga xos mohiyatini taraflarning notengligi bilan ifodalash mumkin, ya’ni taraflardan biri hokimiyat yoki boshqaruv vakolatiga ega bo‘ladi[3].

Yuqoridagi faktlardan kelib chiqqan holda, ma’muriy-huquqiy nizolarga quyidagicha umumiy tavsif berish mumkin:

a) ma’muriy-huquqiy nizo – bu ma’muriy huquq subyektlarining huquq va majburiyatlariga oid nizolardir;

b) ma’muriy-huquqiy nizo noqonuniy boshqaruv aktini qabul qilish fakti yuzasidan ma’muriy-huquqiy munosabat subyektlaridan birining norozilik ifodasidir;

v) ma’muriy-huquqiy nizolar ijro hokimiyati organi tomonidan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishi bilan bog‘liq holda vujudga keladi.



Demak, ma’muriy nizo subyektlaridan biri albatta ma’muriy organ yoki mansabdor shaxs hisoblanadi. Ikkinchi tomonda fuqarolar hamda yuridik shaxslar ishtirok etadi.

Ma’muriy organlar mansabdor shaxslari xatti-harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari bilan bog‘liq shikoyatlar MSIYutKning 184-moddasiga asosan, sud tomonidan ushbu kodeksda nazarda tutilgan umumiy qoidalarga ko‘ra, belgilangan xususiyatlarni inobatga olgan holda, agar ularni ko‘rib chiqish qonun bilan boshqa davlat organlarining vakolatiga kiritilmagan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqiladi. Ma’muriy organlari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan ishlar fuqarolar yoki yuridik shaxslarning arizalari asosida qo‘zg‘atiladi.

Xurshid KURBANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi

[2] Н.В.Сухарева. Сущность административно-правовых споров//Юрист 1999 №10. – 52.
[3] Ю.Н.Старилов. Административная юстиция: Проблемы теории – 1998, 127 бет.